

HAYOT BO'YI TA'LIM, MUSTAQIL O'RGANISH VA INKLYUZIVLIKNING UYG'UNLIGI: ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich tayanch

*doktoranti **Dusyorova Laylo Shoniyoz qizi***

laylodosyorova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada global transformatsiya sharoitida hayot bo'yi ta'lim (LLL) va mustaqil o'rganishning ahamiyati tahlil qilinadi. Unda har bir shaxsning, jumladan, alohida ehtiyojli shaxslarning ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishini ta'minlashda inklyuziv ta'lim tamoyillarining muhim o'rni yoritilgan. Maqola bu uch tushunchaning o'zaro bog'liqligi va ularning shaxsiy hamda kasbiy uzluksiz rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Hayot bo'yi ta'lim, mustaqil o'rganish, inklyuziv ta'lim, kompetensiya, uzluksiz rivojlanish, ta'lim.

Аннотация: В данной статье анализируется значимость непрерывного образования (LLL) и самостоятельного обучения в условиях глобальной трансформации. В ней освещается ключевая роль принципов инклюзивного образования в обеспечении полного вовлечения в учебный процесс каждого индивида, включая лиц с особыми образовательными потребностями. Статья демонстрирует взаимосвязь этих трех концепций и их решающую роль в непрерывном личностном и профессиональном развитии.

Ключевые слова: Непрерывное образование, самостоятельное обучение, инклюзивное образование, компетенция, непрерывное развитие, образование.

***Annotation:** This article analyzes the significance of lifelong learning (LLL) and self-directed learning amidst global transformation. It highlights the crucial role of inclusive education principles in ensuring the full engagement of every individual, including those with special educational needs, in the learning process. The paper demonstrates the interconnectedness of these three concepts and their decisive role in fostering continuous personal and professional development.*

***Keywords:** Lifelong learning, self-directed learning, inclusive education, competence, continuous development, education.*

Bugungi global va kompyuter transformatsiya sohasi inson faoliyatining barcha sohalarida uzluksiz ishlash va bilimlarni muntazam yangilab borishi kun sayin ortib bormoqda. Bu esa insonni nafaqat tabiiy ta'lim olish uchun, balki butun hayot davomida o'qib-o'rganishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga majbur qiladi. Bu jarayonda, hech bir insonning ortda qolmasligi va har bir shaxsning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun inklyuziv ta'lim tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim nazariyasida Hayot bo'yi ta'lim olish (Life Long Learning – LLL) konsepsiyasi alohida o'rin egallab, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi asosiy komponent sifatida talqin qilinmoqda.

Life Long Learning (LLL) — bu insonning butun hayoti davomida ta'lim olishga tayyorligi, bilim va kompetensiyalarini doimiy yangilab borishga intilishi, ta'lim jarayonini mustaqil ravishda boshqarish va o'zini rivojlantirish faoliyatini anglatadi. Bu konsepsiya har bir shaxsning, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqi va imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlaydigan inklyuziv yondashuvni talab qiladi. UNESCO (2021) ta'rifiga ko'ra, hayot bo'yi ta'lim olish insonni global va milliy mehnat bozoriga moslashish, raqobatbardosh kasb egasi bo'lish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkonini beradi[1]. Ushbu konsepsiyaning

eng muhimlaridan biri — mustaqil ta'lim olish ko'nikmasidir. Chunki hayot bo'yi o'rganishda inson:

- o'z bilimini mustaqil ravishda aniqlaydi;
- kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlaydi;
- ta'lim resurslarini o'zi tanlaydi;
- o'zining ta'lim strategiyasini tuzadi va baholaydi;
- yangi ko'nikmalarni o'zlashtirib, amaliyotda qo'llaydi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim resurslarining barchaga birdek qulay va moslashtirilgan bo'lishi, shu jumladan alohida ehtiyojli shaxslar uchun ham raqamli va jismoniy jihatdan inklyuziv muhit yaratilishi juda muhimdir. Buning uchun insonda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi bo'lishi zarur. Bu ko'nikma esa ta'lim tizimi, ekologik muhit, ijtimoiy muhit, motivatsiya va kompyuter manbalariga bevosita bog'liq.

“Hayot bo'yi o'rganish” (Life Long Learning – LLL) – insonning butun umri davomida bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u rasmiy ta'lim vositalarida, turli ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy faoliyatlarda ham amalga oshiriladi[2]. Shu bilan birga, yangi bilimlarga ega bo'lish, insonning nafaqat ta'lim olish, balki o'zini rivojlantirish uchun ham zarurdir. “Life Long Learning (LLL) zamonaviy jamiyatdagi tez iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda insonning o'zi uchun shunchaki ommabop emas, balki jiddiy zaruratdir. Bu holat barcha yosh bosqichiga taalluqlidir. XXI asrga kelib, yoshi ulug' insonlar ham zamon talablari va hayot sifati uchun bevosita yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni his qilmoqdalar”[3]. Bundan tashqari, inklyuziv ta'lim yondashuvi barcha yoshdagi va turli imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxslar uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini yaratib, ularning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlaydi.

Hayot bo'yi o'rganish faqat yoshlar uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lib, insonning o'zini rivojlantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishining muhim

omiliga aylanadi. Ayniqsa, inklyuziv muhitda LLL har bir fuqaroning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga yordam berib, jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan, o'z ustida ishlash, yangi axborot va texnologiyalarni o'zlashtirish, shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarni yangilab borish jarayoni insonning umr bo'yi davom etuvchi rivojlanishiga muvofiqdir.

Hayot davomida o'rganishda mustaqil o'rganishning ahamiyati shundaki, u insonni tashkiliy tomondan mustaqil, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil izlashga o'rgatadi, bu esa raqobatbardoshlik va ijtimoiy faollikni oshiradi[4;28-35]. Bu jarayonda barcha o'rganuvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslar uchun ham teng sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratilishi inklyuzivlikning asosiy shartidir. O'z kasbining professional bo'lish uchun sohada bo'layotgan o'zgarishlarni barqaror kuzatish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirib borish kerak bo'ladi. Ayni paytda mavjud tajriba bilan davom etsa, rivojlanish ham to'xtaydi. Aynan shuning uchun ham umr bo'yi ta'lim olish muhim.

“Mustaqil o'rganish ko'nikmalari orqali ta'lim oluvchi o'z vaqti va bilimni samarali boshqarishga ega bo'ladi, bu esa kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun muhimdir”[5]. Aksariyat o'rganuvchilar vaqtini nazorat qilishni bilmasligi, bilim olishga bo'lgan rag'batini yo'qotib qo'yadigan mustaqil o'zlashtirishdan ortda qolishi mumkin. Inklyuziv ta'lim esa bunday o'rganuvchilarni individual yondashuvlar orqali qo'llab-quvvatlab, ularga o'zlashtirishdagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

“Hayot davomida o'rganish va mustaqil o'rganishning o'zaro bog'liqligi uning amalda samaradorligini ta'minlaydi va insonning uzluksiz ta'lim olishini kafolatlaydi” [6]. Buning uchun pedagoglar ta'lim jarayonida o'rganuvchilarda mustaqillikni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bu rag'batlantirish inklyuziv yondashuv asosida amalga oshirilishi, har bir o'rganuvchining individualligi va o'ziga xos ehtiyojlari inobatga olinishi lozim. Pedagogik jarayonda hayot bo'yi o'rganishni amalga oshirish uchun

turli pedagogik texnologiya va usullardan foydalaniladi. Masalan, “muammoli o‘rganish (problem-based learning), loyiha usuli (project-based learning) va differensial ta’lim - bu usullar talabalarni mustaqil faoliyatga jalb qilish, o‘z intilishlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi”[6;481]. Bu texnologiya va usullar inklyuziv ta’lim muhitida yanada samarali bo‘ladi, chunki ular barcha o‘rganuvchilarning, ularning imkoniyatlari va uslublaridan qat’i nazar, faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Masalan, differensial ta’lim bevosita inklyuzivlik tamoyiliga asoslanib, har bir shaxsning o‘ziga xos o‘rganish tezligi va uslubiga moslashtirilgan bo‘ladi.

“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida talabalarning mustaqil o‘rganish mumkin, bu esa Life Long Learningni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi”[7]. AKT, shuningdek, o‘quv jarayonlarini turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan talabalar, jumladan, nogironligi bor shaxslar uchun ham moslashtirib, inklyuziv ta’lim prinsiplarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. AKT vositalarining moslashuvchanligi turli xil o‘rganish uslublari va qobiliyatlarga ega bo‘lgan talabalarning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi, shu bilan ta’limga kengroq va teng imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, AKT orqali ta’lim resurslariga erkin kirishni ta’minlaydi. Bu imkoniyatning yaratilishi esa talabalarda Life Long Learning – ya’ni umrbod ta’lim olish imkonini yaratishga tadbiq etishning muhim omili. Bu esa har qanday sharoit va imkoniyatdagi shaxslarning, jumladan, cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lganlarining ham bilim olish huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Life Long Learning (Hayot davomida ta’lim olish) – bu insonning bolalikdan boshlab butun umr davomida o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirib borishini ta’minlaydigan uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u nafaqat rasmiy ta’lim muassasalarida, balki norasmiy va informal o‘rganish shakllarida ham amalga oshiriladi. Ushbu jarayon insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilib, uni

zamonaviy hayot sharoitlariga moslashuvi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallasuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ushbu jarayonni samarali tashkil etish, avvalo, ta'lim oluvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va ularni muntazam rivojlantirib borishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO Institute for Lifelong Learning. Fostering a Culture of Lifelong Learning: Background Paper for the International Conference on Adult Education VII (CONFINTEA VII). – Hamburg: UIL, 2021. – 74 b. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379871>
2. UNESCO. (2015). Recommendation on Adult Learning and Education. Paris: UNESCO Publishing
3. KHUSAINOVA, F. (2022). Lifelong Learning as a Resource Third Age Development. *Society and innovations*.
4. Guglielmino, L. M. (2008). Self-Directed Learning: A Key Competency for the 21st Century. *International Journal of Self-Directed Learning*, 5(2), 28-35.
5. Merriam, S. B., & Bierema, L. L. (2013). *Adult Learning: Linking Theory and Practice*. Jossey-Bass.
6. Field, J. (2006). *Lifelong Learning and the New Educational Order*. Trentham Books.
7. Barrows, H. S. (1986). A Taxonomy of Problem-Based Learning Methods. *Medical Education*, 20(6), 481-486.
8. Bates, A.W. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Tony Bates Associates Ltd.